

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

**Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limni tashkil etishning
mazmuni**

Toyirova Dilrabo Sattorovna

Buxoro davlat pedagogika instituti

Maktabgacha ta'lim kafedrasи o'qituvchisi

Salimova Dilshoda

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan inklyuziv ta'lim tizimining takomillashuvi va bu ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ham joriy qilinganligi, inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirish maqsadida yangi qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar yuklatilganligi haqida so'z boradi.

Аннотация: В данной статье говорится о совершенствовании реализуемой в нашей стране системы инклюзивного образования и внедрении этой системы образования в дошкольных образовательных организациях, приняты новые решения и постановления и поставлены задачи по развитию системы инклюзивного образования.

Abstract: This article talks about the improvement of the inclusive education system implemented in our country and the implementation of this education system in pre-school educational organizations, new decisions and decrees were adopted and assigned tasks for the development of the inclusive education system.

Kalit so'zlar: ta'lim, tarbiya, inklyuziv ta'lim, rivojlanish, takomillashuv, harakat, jarayon, sog'lom avlod.

Ключевые слова: образование, обучение, инклюзивное образование, развитие, совершенствование, действие, процесс, здоровое поколение.

Key words: education, training, inclusive education, development, improvement, action, process, healthy generation.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, bolalarga sifatli ta'lim berish, maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, maktabgacha ta'lim ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida ta'lim tizimida ishlab chiqilayotgan qaror va farmonlarning asosiy mazmuni sog'lom bolalar bilan bir qatorda imkoniyati cheklangan bolalarni ham har tomonlama rivojlantirishdan iboratdir.

Bugungi kunda ta'lim-tarbiya jarayonining ilk bosqichi hisoblangan maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirishga davlat miqyosida keng e'tibor qaratilmoqda. Shunday ekan maktabgacha yoshdagi bolalarda aqliy, jismoniy, fiziologik, biologik va psixologik jihatdan rivojlanishining dastlabki omillari shakllantirilib boriladi. Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar orasida ham alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni ko'rishimiz mumkin. Bunday bolalarga esa o'z tengqurlari bilan birgalikda ta'lim tarbiya olishlari uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy qilish maqsadga muvofiqdir. Ammo maktabgacha ta'lim tashkilotida inklyuziv ta'limni joriy qilishda bunday ta'limga muhtoj bo'lgan bolalarning barchasini ham qamrab olmaslik kerak. Mamlakatimizda ta'lim tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrovini ta'minlash, maktabgacha ta'lim muassasalarini zamonaviy o'quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to'ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko'rsatmoqda. Ma'lumki jamiyatimizda aqliy jihatdan sog'lom lekin ko'rishida nuqsoni bo'lgan, eshitishida nuqsoni bo'lgan yoki jismoniy jihatdan rivojlanishdan ortda qolgan bolalar ham uchrab turadi. Inklyuziv ta'limni amalgaga oshirishda bolaning psixologik va aqliy rivojlanganligi muhim ahamiyatga ega. Zero, aqliy intelekti joyida lekin jismoniy rivojlanishdan ortda qolgan bolalar

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

ta'lim jarayonidagi bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtira olishlari mumkin.

Maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalaring sifatli maktabgacha ta'lidan teng foydalanishini ta'minlash, maktabgacha ta'lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Ushbu qarorda O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatları va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy mакtabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday mакtabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa mакtabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi. Bolalarning qobiliyatları va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etilishi kerak.

UNICEF inklyuziv ta'limni O'zbekiston ta'lim tizimiga kiritish masalalari bilan shug'ullanadi. Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatları va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatli ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy mакtabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Inklyuziv ta'lim tizimi nogironlar aravachasidagi bola yaqin atrofda joylashgan har qanday mакtabda ta'lim olishi, o'zlashtirishda qiynalayotgan bo'lsa, o'qish va yozishga o'rganish uchun maxsus yordamga ega bo'lishi, darslarga qatnamay qo'ygan bolaga esa mакtabga qaytish uchun tegishli yordam ko'rsatilishini kafolatlaydi.

Ta'lim tizimini joriy etish har doim ma'lum bir qonun qoidalarga,

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

tamoyillarga asoslanishni talab etadi. Inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilishda esa quyidagi tamoyillarga asoslaniladi:

- 1) Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi.
- 2) Inklyuziv ta'limning barcha uchun ochiq bo'lishi tamoyili.
- 3) Bog'lanishning mavjud bo'lishi tamoyili.
- 4) Markazlashtirilmagan bo'lishi tamoyili.
- 5) Inklyuziv ta'limda kompleks yondashishi tamoyili.
- 6) Inklyuziv ta'limda moslashuvchanlik tamoyili.
- 7) Malakaviylik tamoyili.

Inklyuziv ta'limning e'tirof etilishi tamoyili. Bu tamoyilning mazmuni shundaki, 1990 yildan buyon maxsus ehtiyojli bolalarni umumta'lim muassasalari tizimida o'qitish borasida bir qancha jahon miqiyosida deklorasiyalar va qarorlar qabul qilindi. Ularni jahoning ko'plab davlatlari e'tirof etdilar. Ammo bugungi kunga qadar ularni hayotga joriy qilish borasida ko'plab muammolar mavjud. Ba'zi davlatlarda esa umumiylar ta'lim borasida qonun yoki qarorlar qabul qilinganda nogiron bolalarning ta'lim masalasi unga kiritilmaydi. Ammo inklyuziv ta'limni tan olish faqatgina qonun chiqarish bilangina bog'liq bo'lmaydi. Diskriminansiya (odamlarni ajratish) va ijtimoiy noto'g'ri fikrlashga qarshi kurashish eng muhim narsadir. Ya'ni inklyuziv ta'limni e'tirof etgan holda, aholi o'rtasida targ'ibat-tashviqot ishlarini olib borish eng birinchi galadagi masaladir.

Maktabgacha ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatli ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir. Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

-o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi - mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishslash imkoniyati orqali yuzaga keladi;
-dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
-o'qishga bo'lgan ehtieji va qiziqishlari ortadi;
-O'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- Ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
- Yotsirash, yakkalanish kabi xususi yatlari yo'qoladi. Inklyuziv ta'lim sog'lom bolalar hayotiga qanday ta'sir ko'rsatadi?
- O'zlariga o'xshamagan tengdoshlari va ularning hayoti, ehtiyojlarini his qiladilar; -Tengdoshlariga g'amxo'rlik hissi uyg'onadi;
- Ularni qo'llab-quvvatlash, yordam berishga intilish;
- insonparvarlik hissi tarbiyalanadi;
- O'quvchilarda atrofdagi insonlarga, imkoniyati cheklanganlarga pozitiv munosabat, o'zaro hurmat tarbiyalanadi ;
- Yordamga muhtoj insonlarga e'tibosizlik qilmaydigan shaxsga aylanadilar;
- Hozirda mamlakatimizda inklyuziv ta'limga yo'naltirilgan maktabgacha ta'lim tashkilotlari kun sayin ko'payib va takomillashib bormoqda.

Shunday ekan maktabgacha ta'lim tashkilotida sanab o'tilgan tamoyillar asosida bunday bolalarni sog'lom bolalar orasida ta'lim tarbiya jarayoniga jalg qilish orqali samarali natijaga erishishimiz mumkin. Maktabgacha ta'lim tashkilotida yosh murg'ak qalbli bolajonlarga ta'lim berish bilan bir qatorda tarbiyaning bir qancha turlari ham shakllantirilib boriladi. Alovida ehtiyojga muhtoj bo'lgan bolalarga o'z nomi bilan ularga yon atrofdagilarning ko'magi kerak bo'ladi. Demak sog'lom bolalar o'z guruhlarida tarbiyalanayotgan alovida e'tiborga muhtoj bolalargahar qanday vaziyatda qo'lidan kelgancha yordam berishlari, amaliy ko'maklashishlari muhim ahamiyatga ega. Bunday paytda tarbiyachining mahorati juda muhim o'rin tutadi. Ushbu jarayonda sog'lom bolalarning ongida alovida e'tiborga muhtoj bolalarga to'g'ri munosabatda bo'lishga ,ularni o'zлari bilan teng huquqlilikda ta'lim olish huquqiga ega ekanliklari haqida hamda do'stlashish,yordamga muhtojlarga mehr ko'rsatish,ko'mak berish kabi bir qator ma'naviy axloqiy sifatlarning ilk bosqichlari shakllanishini ta'kidlash joiz.

Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotida sog'lom bolalar orasida ta'lim

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

olayotgan bolalar uchun maxsus variativ va alternativ dasturlari ishlab chiqilishi kerak. Chunki bunday bolalarga sog‘lom bolalardan farqli o‘laroq alohida e’tibor hamda ta’limning ham alohida ko‘rinishi amalga oshirilishi talab etiladi. Inklyuziv ta’lim barcha bolalar uchun maxsus ta’lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning farqliliginini inobatga olgan holda ta’lim muassasalarida ilm olishda teng huquqlilikni ta’minlash orqali tashkil etiladi.

Bu ta’lim bir tomonlama bo‘lmasisligi kerak, ya’ni bunda ota-onalar bilan hamkorlik masalasi alohida o‘rin tutadi. Ushbu fikrning amaliy namunasi sifatida imkoniyati cheklangan bolada sifatli ta’limni o‘zlashtirish, o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshirish, ko‘nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o‘rganishni rag‘batlantirishda oila ishtirokini ta’minlash o‘rinli bo‘ladi. Inklyuziv ta’lim jarayonida ota-onalar bilan ishslash ham muhim. Ta’kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo‘lagi bo‘lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining O’zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida qarori PQ-4312 08.05.2019
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining alohida ta’lim olish ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim- tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora - tadbirlari to’g’risidagi qarori -4860 13.10.2020
3. Д.З. Ахметова, З.Г. Нигматов, Т.А. Челнокова, Г.В. Юсупова и др. Педагогика и психология инклюзивного образования: учебное пособие . - Казань, 2013
- 4.“Alohida yordamga muhtoj bolalarni manaviy va estetik rivojlantirish mavzusidagi ilmiy-nazariy konferensiya materiallari.Toshkent-Uzinkomsentr- 2002 yil.
5. Ko‘rishida muammosi bo‘lgan bolalar inklyuziv ta’limi. Grigoryants«Inklyuziv ta’lim» muvaqqat Nizomi. 2005 yil.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

6. Imkoniyati cheklangan bolalar va o'smirlar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish to'g'risida muvaqqat NIZOM. O'RXTV T, 2005.